



XONDIZA POLIMETAL RUDA KONI

Yuldashev Ulug'bek Ergashevich

Termiz muhandislik-texnologiya instituti

Energetika va konchilik ishi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Xondiza polimetal ruda” koni nechinchi yil asos solingan yillik ishlab chiqarish quvatti qancha bugungi kunda tutgan o'ri. Qanday jarayonlarda xosil bo'lgan va bugungi kunda zaxirasi qanchaligi haqida yoritilgan. Xondiza kon boshqarmasining rasmiy ochilish marosimi 2011-yilning 6-may kuni bo'lib o'tgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xondiza va Uch quloch konlarining polimetall rudalari mineral xomashyo bazasidan samarali foydalanish to'g'risida”gi qarori uning rivojlanishiga asos soldi.

Kalit so'zlar: Xondiza shaxtasi, Hisor tizmasidagi Surxontog' tog'larining markaziy qismi, SHimoliy, SHimoliy – G'arbiy, Vulkanogen cho'kindi, Granitlar, Rux, Qo'rg'oshin, Mis.

Kirish: Faoliyati Xondiza kon boyitish majmuasining hayot tomiri Xondiza konidan boshlanadi. Hisor tizmasidagi Surxontog' tog'larining markaziy qismida, Sariosiyo hududida, tuman markazidan 54 km. uzoqlikda joylashgan. Xonjiza koni shimoliy va shimoliy-g'arbiy yo'nalishlarda tartibsiz cho'zilgan 40 km² ga teng maydonga ega. Geografik jihatdan konning maydoni kuchli ajralib turadigan tog'li yer bilan tavsiflanadi. Rudali maydonni shimolda eng yuqori nuqtasi 3075.2 m., markaziy qism sohasida 1300 m. gacha bo'lgan Hisor tog' tizmasi o'rab turadi, Sariosiyo temir yo'l stansiyasidan 60 km. uzoqlikda joylashgan. Kon maydonida uch tuzilma qavatli jinslar yastanib yotadi. -pastki: 280 m. atrofida Xondiza tog' jinslari tizmasining quyi



kembriygacha metamorfik jinslar, kristalli slaneslar, ikki slyudli gneyslar va gneyslangan granitlari bilan namoyon bo'lgan. o'rtacha: vulkanogen-cho'kindi karbon davri jinslari bilan tavsiflanadi. Yuqori qavat: quyi va o'rta qavatlar cho'kindilarida g'ilof shaklida yotuvchi yura terrigenoz cho'kindi jinslar hosil qiladi. Asosiy ruda kon qatlamlari linzasimon va tomirsimon-zarrali zonalari bilan almashib turadigan, qattiq rudali qatlamsimon ruda jismlar qatorini birlashtiradi. Umuman olganda, u subkenglikda cho'zilib yotadi. Pasayishi janubda 25-300 va shimolda 45-600 nisbatan qiyalamadir. Eng katta quvvat qiyalama joylashgan va fleksural burilish uchastkalariga xos bo'lib, yonbag'irlarda u keskin ravishda kengaytiriladi. Kon yuqoridan va pastdan surilma yon tomonidagi terrigen-karbonat-piroklastik qadoq bilan va osilma tomondagi vulkanogen qadoq gorizont jinslari bilan bog'lanish orqali o'tadigan surilmalar bilan chegaralangan. Kon bag'ridagi tog' jinslari va ruda qatlamlari ichida braxiform tuzilishga ega bo'lgan burmalar mavjud. Rudalarning o'ziga xosligi - xalkopiritning galenit, sfalerit va piritga 0.5:1:3:4 miqdoriy nisbati bilan ularning mayda donali tuzilishidir. Umuman olganda, rudali jismlar bir necha gipsometrik sathlar bo'limida joylashgan bo'lib, qalinligi 10 dan 30 m. gacha bo'lgan vulkanoklastik jinslarning rudasiz qatlamlari bilan ajralib turadi. №3, №2, №4, №6 va №8 eng yirik jismlar hisoblanadi. Ular orasidagi intervallarda №5, №7 va №9 mayda linzasimon jismlar joylashtiriladi. №3-sonli ruda jismi kondagi asosiy konlardan biri hisoblanadi. Unda barcha foydali qazilmalarning o'rganilgan zahiralarini 80% dan ortig'i bor. Cho'zilishi bo'yicha 600 m, ag'darilishi bo'yicha 780 m, o'rtacha haqiqiy quvvatda 14 m tashkil etadi. Rudali jism shimolga va sharqqa to'liq konturlanmagan. 3-sonli rudali jismning holati pastki vulkanogen gorizontning riolitit-dasit porfirining riolit-porfirlari tuflari bilan aniqlanadi. Boshqa ruda jismlari hisoblab chiqilgan zahiralar miqdorining foizlardagi miqdorini: №4-5%; №5-5,7%; №6-4,7%; №8-2%; №7,9 dan 0.5%gacha; №5-0,3% o'z ichiga oladi. Jismning markaziy qismigan to'g'irlangan №3(18-21,6 m) ruda jismlarining eng yuqori quvvatlari +1300 va +1000 m belgilari oralig'ida va fleksuraning qiyalama qismiga to'g'irlangan. +1000 m belgisidan past o'rtacha quvvat 6-8 m.gacha qisqaradi. Kon rudalari konlarning asosiy qismini tashkil qilib, tomirli-zarrali va qattiq massivli turlarga bo'linadi hamda rudalarning asosiy massasi ichida lentasimon shakldagi mayda to'planmalarni hosil qiladi. Kon



rudalarining o'ziga xos xususiyati baritning uncha katta bo'lmagan tarkibi (1-1.5%) hisoblanadi. Aralashmalar elementlari, asosiy sul'fidlar (sfalerit, galenit, pirit, xalkopirit)da ham, mustaqil materiallar ko'rinishida ham topiladi. Kumush izomorf ravishda asosiy sul'fidlarga bog'langan bo'lib, argentit, freybergit, prustit va boshqa mustaqil minerallarni hosil qiladi. Rudalarda oltin mayda tarqalgan, shuningdek galenit, xalkopirit, pirit va ehtimol, tellurid ko'rinishida ham aralashma sifatida bo'ladi. Kadmiy rudalarda sfaleritda aralashma sifatida uchraydi. Saqlovchi jinslardagi asosiy minerallar kvars, plagioklaza, kaliyli dala shpati, muskovit va biotit hisoblanadi. **“Xondiza” shaxtasi 2007-yilning noyabr oyida “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ Kovuldi koniga qarashli bo'lgan kapital kon ishlari uchastkasi Xondiza konida kon tayyorlov ishlarini amalga oshirishni boshladi.** 2009-yil dekabr oyida “Xondiza” shaxtasidan ilk bora ruda qazib olindi. “Xondiza” shaxtasining umumiy yer maydoni 128 ga ni tashkil etadi. 2019 yilda shaxtadan rudani qazib olib, rudani chiqarish va burg'ulash ishlarini samarali tashkil etish maqsadida Shvesiya davlatining “Epiroc” firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan 5 ta MT-2010 rusumli yer osti avtosamosvali, 1 ta SBU Simba K-102 rusumli burg'ulash mashinasi va Finlyandiyaning “Sandvik” firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan 5 ta LH - 307 rusumli ortish-etkazish mashinasi, TH-320 rusumli 1 ta avtosamosvali, SBU DL-210 rusumli 1 ta burg'ulash texnikalari olib kelindi.

Xondiza shaxtasi quyidagi uchastkalarni o'z ichiga oladi:

- Yer osti kon ishlari uchastkasi
- Shamollatish va kon lahimlarini mustahkamlash uchastkasi
- Shaxta yer usti uchastkasi
- Kon tayyorlov uchastkasi
- Elektr ta'minoti uchastkasi.

Shaxtada kon qazish ishlari ikki tizimda olib borilmoqda:

- qavatlar ostidan qulatish orqali;
- kamera-ustunli.



Xondiza — bugungi kunda Xondiza kon boshqarmasi tarkibiga Xondiza shaxtasi, boyitish fabrikasi, ta'mirlash-qurilish uchastkasi, moddiy-texnika bazasi kiradi. Bu yerda polimetall rudalar qazib chiqariladi va boyitiladi. Natijada ulardan mis, rux va qo'rg'oshin konsentratlari olinadi. "Biz uch turdagi mahsulot: rux, qo'rg'oshin va mis konsentratlarini ishlab chiqaramiz. Rux va mis konsentratlarini keyingi qayta ishlash uchun OKMK rux va mis eritish zavodlariga jo'natamiz. Qo'rg'oshin konsentrati esa 2018-yilgacha omborlarimizda to'planar edi. O'sha yildan boshlab, uni Qozog'istonga eksport qilish boshlandi. Masalan, 2018-yilda 47 ming tonnadan ko'proq, 2019-yilda 53 ming tonna, 2020-yilda esa 24 ming 600 tonna qo'rg'oshin konsentrati eksport qilindi. Bu yilda 48 ming tonna konsentrat eksport qilishni rejalashtirganmiz", — deya hikoya qiladi "Olmaliq KMK" AJ Xondiza kon boshqarmasi direktori Botir Xo'jamuratov. Boyitish fabrikasiga kelganda esa uning ruda bo'yicha yillik ish unumi 650 ming tonnani tashkil etadi. Soatlik ish unumi 82,07 t/soat, kunlik ish unumi 1850 tonnaga teng. Xondiza boyitish fabrikasi mutaxassislari bir oyda o'rtacha 50 000 tonnadan ko'p polimetall rudani qayta ishlaydi. Ishlab chiqarishni texnik jihozlash, albatta, juda yaxshi. Lekin bu ishlab chiqarishlarda ishlayotgan mutaxassislarning o'rnini va ahamiyatini baholash juda mushkul. Hozirgi vaqtda kon boshqarmasi xodimlari jamoasi 930 kishidan iborat. Erishilgan yutuqlarning asosini shakshubhasiz, oqilona rahbarli va xodimlarning o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashish



Bu fabrikada texnologik jarayon kombinatning boshqa fabrikalariga qaraganda birmuncha murakkab, chunki bu yerda biryo‘la uchta metall konsentrat olinadi. Shu sababli boyitish va metallni konsentratga ajratib olish texnologiyasi monokonsentrat olish texnologiyasidan ancha farq qiladi. Boyitish fabrikasiga kelganda esa uning ruda bo‘yicha yillik ish unumi 650 ming tonnani tashkil etadi. Soatlik ish unumi 82,07 t/soat, kunlik ish unumi 1850 tonnaga teng. Xondiza boyitish fabrikasi mutaxassislari bir oyda o‘rtacha 50 000 tonnadan ko‘p polimetall rudani qayta ishlaydi.

XULOSA: Bugungi kunda Xondiza kon boshqarmasi tarkibiga Xondiza shaxtasi, boyitish fabrikasi, ta‘mirlash-qurilish uchastkasi, moddiy-texnika bazasi kiradi. Hozirgi vaqtda kon boshqarmasi xodimlari jamoasi 930 kishidan iborat. Erishilgan yutuqlarning asosini shak-shubhasiz, oqilona rahbarlik va xodimlarning o‘z ishiga mas‘uliyat bilan yondashishi tashkil etadi. Bu yerda polimetall rudalar qazib chiqariladi va boyitiladi. Natijada ulardan mis, rux va qo‘rg‘oshin konsentratlari olinadi. “Biz uch turdagi mahsulot: rux, qo‘rg‘oshin va mis konsentratlarini ishlab chiqaramiz. Rux va mis konsentratlarini keyingi qayta ishlash uchun OKMK rux va mis eritish zavodlariga jo‘natamiz. Qo‘rg‘oshin konsentratlari esa 2018-yilgacha omborlarimizda to‘planar edi. O‘sha yildan boshlab, uni Qozog‘istonga eksport qilish boshlandi. Masalan, 2018-yilda 47 ming tonnadan ko‘proq,



2019-yilda 53 ming tonna, 2020-yilda esa 24 ming 600 tonna qo'rg'oshin konsentrati eksport qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://www.google.com/url?q=https://www.agmk.uz/oz/mining/xondiza-kon-boshqarmasi-faoliyat-turi&sa=U&ved=2ahUKEwjC3dbIn_qDAxWAGxAIHW30C5UQFnoECAUQAg&usg=AOvVaw0vvHFqzf_8HvpvIkwUtghC
2. <https://uzsmart.uz/encyclopedia/encyclopedia/65276.html>
3. <https://milliycha.uz/xondiza-polimetall-ruda-koni/>
4. A.X.JO'LIEV, X.CHINIQULOV “UMUMIY GEOLOGIYA” (Oliy o'quv yurtlarining geologiya fakulteti talabalari uchun darslik)